

Banklarni raqamli transformatsiya qilish zarurati

Saydullayev G'olibjon Erkinovich

TDIU To'rtko'l fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli bank ishining muhim yo'nalishi hisoblanmish banklarni raqamli transformatsiya qilish zaruratini rivojlantirish yuzasidan fikr va

mulohazalar yuritiladi. Raqamli bank ishi shuningdek, raqamli transformatsiya tushunchasi mamlakatimizdagi yosh va jadal rivojlanayotgan sohalardan biri ekanligi sababli, ushbu yonalish haqida manbalar afsuski yetarlichcha topilmaydi. Joriy yetishmovchiliklarni to'ldirishda o'z xissamizni qo'shish maqsadida, maqolada turli mulohaza va takliflar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli bank ishi, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, raqamli banklar.

Аннотация: В данной статье обсуждается необходимость развития цифровой трансформации банков, которая является важным направлением цифрового банкинга. Комментарии сделаны. Поскольку цифровой банкинг и концепция цифровой трансформации являются одной из молодых и быстро развивающихся областей в нашей стране, ресурсов, посвященных этому явлению, к сожалению, недостаточно. В целях содействия восполнению имеющихся недостатков в статье представлены различные замечания и предложения.

Ключевые слова: цифровой банкинг, цифровизация, цифровая трансформация, цифровые банки.

Abstract: In this article, the need to develop the digital transformation of banks, which is an important direction of digital banking, is discussed and comments are made. Since digital banking and the concept of digital transformation is one of the young and rapidly developing fields in our country, resources about this phenomenon are unfortunately not enough. In order to contribute to filling the current shortages, the article presents various comments and suggestions.

Keywords: digital banking, digitization, digital transformation, digital banks.

Kirish

Bank xizmatlarini modernizatsiyalash va soddalashtirish tizimi mamlakat moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, barcha sohalarda bo'lgani kabi, bank tizimiga ham keng joriy etilgan. Bank tizimida raqamli bankingni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy masalalaridan biri ekanligi, ayniqsa butun dunyo bo'y lab hukm surayotgan koronavirus pandemiyasi davrida ham yaqqol yuzaga chiqdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatlarini ko'rsatmasdan) masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatuvchi bank yoki uning sho'ba korxonasi raqamli bank hisoblanadi.

Dunyo bo'y lab banklar allaqachon raqamli texnologiyalarga investitsiyalar qanday bo'lishi mumkinligi hamda mijozlarni jalg qilish va qoniqish hosil qilish haqida tushunib yetmoqda. Misol uchun Amerika banki an'anaviy bank filiallariga qaraganda ko'proq onlayn depozitlar qabul qilgan. Bankning Bosh ijrochi direktori Brayn Moynihaning fikriga ko'ra, raqamli bank xizmatlariga investitsiya kiritish mijozlarning ehtiyojini qondirishga yordam beradi.

Tahsil va natijalar

Hozirgi kunda bank sohasi dunyo bo'y lab raqamli qurollanish poygasiga kirishgan. 2018-yilda dunyo banklari raqamli banking imkoniyatlari uchun 9.7 mlrd. AQSH dollari miqdorda investitsiya kiritishni rejalashtirgan. Ko'pchilik tijorat banklarida onlayn va mobil bank dasturlarini yaratish va rivojlantirish odatiy bank filialari va ATMlarni ko'paytirishdan ko'ra muhimroq deb qaralmoqda. Darhaqiqat, "Raqamli bank" tushunchasi 2015-2020 yillar davomida Yevropa davlatlarida jadallik bilan rivojlangan. Raqamli banklar o'z mijozlariga yanada qulaylik va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda bank tizimida raqobat muhitini yaxshilash, xorijiy investorlar ishtirokini kengaytirish borasidagi chora-tadbirlar doirasida Gruziya davlatining yirik banklaridan biri "TBC Bank"ning Toshkent shahrida "TBC Bank" aksiyadorlik

tijorat banki, raqamli bank xizmatlarini ko'rsatuvchi "Anor bank" aksiyadorlik jamiyati o'z faoliyatini boshladi hamda 20 ta tashkilotga to'lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalar berildi. 2020 yilda tijorat banklari tomonidan bazaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi 409 tayangi bank xizmatlari ofislari tashkil etilib, ularning soni 866 taga yetdi. Banklar tomonidan 691ta 24/7 rejimida ishlovchi o'ziga-o'zi bank xizmatlarini ko'rsatish markazlari tashkil etilib, ularning soni 1452 taga yetkazildi[1].

Markaziy bank faoliyatining yana bir asosiy yo'nalishi –to'lov tizimlarining uzluksiz hamda barqaror ishlashini ta'minlash, to'lov tizimlari infratuzilmasiniyanada kengaytirish borasida ham tegishli ishlar amalga oshirildi.2020 yilda tezkor to'lovlar tizimi orqali jami 128,3 trln. so'mlik qariyb 5,4 mln. tatranzaksiyalar, jumladan, g'aznachilikka 232 mingdan ortiq 2 trln. so'mlik budget to'lovlari o'tkazildi. To'lov infratuzilmasini yanada kengaytirish maqsadida, 2021 yilning 1 martiga kelib bankomat va infokiosklarning umumiyligi soni 12289 donaga, terminallarning umumiyligi soni 440,3 ming donaga yetkazildi.Fikrimizcha, bank uchun xizmatlar operatsiyalarini soddalashtirish va ularning sifatini oshirish bo'yicha texnologik yechimlar eng muhimidir, nomoddiy yoki virtual kanallardan foydalanish esa moliyaviy bozordagi o'zgarishlarga tezkor javob berish ehtimolini oshiradi. Operatsion imkoniyatlarni soddalashtirish uchun banklar qarorlarni "ochiq rivojlanish" tamoyili va xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minot (SaaS) yechimlari asosida qabul qilishlari mumkin bo'ladi. Sun'iy intellekt va mashinada o'qitish texnologiyalari rivojlanib va mashinada o'rganish usullari va algoritmlari yaxshilanmoqda. Raqamlashtirishning eng muhim yo'nalishlari qatorida tuzilmaviy ma'lumotlarning katta hajmlarini chuqur tahlil qilishga qodir bo'lgan ko'p qatlamlili neyron tarmoqlarini yaratish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, bulutli hisoblash texnologiyalari mijozlarga xizmat sifatida infratuzilmalar, platformalar va dasturlarni ijara qilishga qodir bo'lgan qator qatorida tuzilmaviy ma'lumotlarning katta hajmlarini chuqur tahlil qilishga qodir bo'lgan ko'p qatlamlili neyron tarmoqlarini yaratish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, bulutli hisoblash texnologiyalari mijozlarga xizmat sifatida infratuzilmalar, platformalar va dasturlarni ijara berish orqali biznes samaradorligini va tezkorligini yaxshilaydi. Sun'iy intellekt texnologiyalari inson tafakkurining turli qirralarini taqlid qiluvchi kompyuter algoritmlaridan

foydalanishga asoslangan. Ushbu ulkan geterogen va tez-tez tuzilmaydigan ma'lumotlarni (Big data) samarali saqlash, boshqarish, qayta ishlash va tahlil qilish uchun yangi texnologik yechimlar zarur.

Raqamli texnologiyalar banklarning to'lov muddatlarini keskin qisqartirish, xarajatlarni pasaytirish, to'liq anonimlik, oshkoraliq kabi yangi imkoniyatlarni ochsada, kripto-valyutalarning hech qanday aktivlarni taqdim etmasligi kabi salbiy jihatlar ularning qiymatining yuqori o'zgaruvchanligiga egaligi, investitsiyalarning chiqib ketishini rag'batlantirish va noqonuniy faoliyatni moliyalashtirishda ishtirok etish, bularning barchasi ushbu sohada jiddiy tahdid va xavf tug'diradi[2].

Shuningdek, ilova dasturlash interfeyslarini (API) amalga oshirish uchinchi tomonlarga bank platformalari bilan birlashishi oson bo'lgan qo'shimcha xususiyatlarga ega yechimlar va xususiyatlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Shu bilan birga, SaaS yechimlari banklarga yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun o'z mablag'laridan foydalanmasdan, mijozlarga tez-tez yangilab turadigan kengroq xizmat turlarini taklif etadi. Bank iste'molchilarining hozirgi yosh avlodи banklardan yanada xilma-xil virtual bank yechimlarini kutmoqda.

Xulosa

Bugungi kunda bank sohasida moliyaviy texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalarining eng ommalashgan yo'nalishlari bu onlayn to'lov texnologiyalari, biometrik identifikatsiyalash va robotlashtirishdir. So'nggi bir necha yil ichida respublikamiz bank tizimida sezilarli texnologik o'zgarishlar yuz berdi. Dunyo taraqqiyotida raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati yil sayin yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar jismoniy shaxslar ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari tizimini raqamlashtirishda faol ishtirok etmoqda: tezkor to'lovlar tizimi yaratildi, bu to'lovlar real vaqtda tunukun, shu jumladan banklar o'rtasidagi dam olish va ta'til kunlari, milliy to'lov tizimi orqali amalga oshirishga imkon berdi. "Uzcard" va "Humo" milliy to'lov vositalarini qabul qilish uchun infratuzilma yaratildi. Va

shunga qaramay, respublikamizda moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari tijorat banklari bo'lib, ular an'anaviy kredit tashkilotlari bo'lib, texnologik modernizatsiyaga katta mablag' sarflaydilar va o'zlarining auditoriyalarini faol ravishda ko'paytiradilar.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari tobora ko'proq kuchli raqobatda ustuvorlikka erishish uchun yangi imkoniyatlarni qidirishga e'tibor qaratmoqdalar. Ulkan ma'lumotlarni (Big data) tahlil qilishning texnologik imkoniyatlaridan foydalangan holda, tijorat banklari asosan mijozlarga yo'naltirilgan takliflarni yaratmoqdalar, bank o'z mijozlarini qanoatlantiradigan qiymat (qadriyat) ishlab chiqarmoqdalar va eng asosiysi mijozni qiymat yaratish jarayoniga jalg qilib yangi mahsulotni bирgalikda bozorga chiqaradilar.

Foydalangan adabiyotlar

1. https://cbu.uz/oz/press_center/reports/480144/
2. Xoshimov, E.A., 2020. Problemi monetarnoy politiki v usloviyax sifrovizatsii. Studies, 16, pp.1203-1238.
3. Mamadiyarov Z.T. Raqamli iqtisodiyotda masofaviy bank xizmatlarining evolyusion rivojlanishi: mulohazalar va tahlillar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. No 3, may-iyun, 2020
4. Azlarova A.A., Abduraxmanova M.M. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tijorat banklari xizmatlarining o'rni // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. No 6, noyabr-dekabr, 2019